

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20.30.2019.S.23.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

SH.RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

XUJANOV ZAFAR BEKTIMIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA EHTIYOJMAND AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN
CHIQRISH OMILLARI**

**22.00.02. – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi
Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
социологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Sociological Sciences**

Xujanov Zafar Bektimirovich

О‘zbekistonda ehtiyojmand aholini kambag‘allikdan chiqarish
omillari 3

Хужанов Зафар Бектимирович

Факторы вывода нуждающегося населения из бедности
в Узбекистане..... 23

Xujanov Zafar Bektimirovich

Factors to lift needy population out of poverty in Uzbekistan 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI DAVLAT
BOSHQARUVI AKADEMIYASI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.20.30.2019.S.23.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

**SH.RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

XUJANOV ZAFAR BEKTIMIROVICH

**O‘ZBEKISTONDA EHTIYOJMAND AHOLINI KAMBAG‘ALLIKDAN
CHIQRISH OMILLARI**

22.00.02. – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi

**Sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/S107 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dba.uz/uz/tadqiqotchilarga/ilmiy-kengash)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umarov Absalom Adilovich
sotsiologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Seitov Azamat Pulatovich
sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yunusov Alisher Bobomuradovich
sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:


Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruvi akademiyasi huzuridagi DSc.20/30.12.2019.S.23.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 - yil "15" mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.:(99871) 232-60-80; faks: (99871) 232-60-66, e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat Boshqaruvi akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (356-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 45. Tel.:(99871) 232-61-25; e-mail: info@dba.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "3" mart kuni tarqatildi.

(2025 -yil "1" martdagi №01/3-4-raqamli reestr bayonnomasi).



KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurligi. Kambag'allikni qisqartirishda ko'plab mamlakatlar ijobiy natijalarga erishgan bo'lsa-da, hali ham kambag'allik darajasi jahon hamjamiyati uchun jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, "mutlaq kambag'allikda yashovchi dunyo aholisining ulushi 1990-yildagi 36% dan 2022-yilga kelib 9.2% ga taxminan 689 million kishigacha qisqardi"¹. Bu raqamlar kambag'allikni qisqartirishdagi sezilarli yutuqlarni aks ettirsa-da, xozirda dunyo aholisining har 10 nafaridan 1 nafari kunlik minimal ehtiyojlarini ta'minlay olmay hali ham o'ta nochor sharoitlarda yashamoqda. Shu bois, mazkur muammoni hal qilish uchun yanada samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kambag'allik muammosi faqat moddiy yetishmovchilik bilan cheklanib qolmay, insonning ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnat bozoridagi imkoniyatlarini cheklaydi, shuningdek, ijtimoiy adolatga erishish yo'lida to'siq bo'ladi. Shuning uchun ushbu muammoni hal etish ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va kelajak avlod uchun mustahkam poydevor yaratishning asosiy sharti hisoblanadi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda ijtimoiy himoya, aholi bandligini ta'minlash, kasb-hunarga o'rgatish va inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kambag'allikni qisqartirish yo'lidagi muhim qadamlar sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Biroq, mazkur jarayon ko'pqirrali va tizimli yondashuvni talab etadi. Kambag'allikni kamaytirish uchun faqat davlat dasturlari emas, balki jamoatchilikning faol ishtiroki, xususiy sektorning qo'llab-quvvatlovi va xalqaro tajribalardan samarali foydalanish ham zarur.

Mamlakatimizda kambag'allikni kamaytirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish nafaqat aholi farovonligini oshirish, ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va ijtimoiy adolat tamoyillarini hayotga tatbiq etish uchun ham zarurdir. "Kambag'allik masalasi kredit, ijtimoiy nafaqa yoki uy berish bilan o'z-o'zidan hal bo'lib qolmaydi. Buning uchun ta'lim, sog'liqni saqlash, kasb-hunarga o'qitish, ichimlik suv, energiya va yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq kompleks muammolarni hal etib borish kerak"². Shu sababli kambag'allik tushunchasining mohiyatini, uning kelib chiqish sabablarini nazariy hamda amaliy jihatdan o'rganish, ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha rivojlangan mamlakatlar tomonidan to'plangan ijobiy tajribalarni tahlil qilish orqali mavjud muammolarga yechim topish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 20-oktabrdagi "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'RQ-642-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son, 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son, 2023 yil 12 iyundagi "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'yektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-93-son, 2019 yil

¹ <https://socialincome.org/en/int/world-poverty-statistics-2024>

² Qarang: Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси // "Халқ сўзи", 2020 йил 25 январь № 19 (7521) сони

22 fevraldagi “Sotsiologik tadqiqotlar o‘tkazishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5667-son farmonlari, 2020-yil 11-avgustdagi “Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o‘qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4804-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-fevraldagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son, 2021 yil 27-avgustdagi “Minimal iste‘mol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish to‘g‘risida”gi 544-son qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarildi.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Kambag‘allik muammosi antik va o‘rta asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkirlar asarlarida ham atroflicha ko‘rib chiqilgan. Jumladan, islom dinining muqaddas manbalari Qur‘oni Karim va Hadisi shariflarda, Abu Nasr Forobiy, Yusuf Xos Xojib, Amir Temur, Alisher Navoiy³ asarlarida kambag‘allik paydo bo‘lishining asosiy sabablari, undan qutulish yo‘llari bayon qilingan.

Kambag‘allik muammosi ko‘plab horijiy va mahalliy mualliflar tomonidan sotsiologik va iqtisodiy nuqtai nazardan o‘rganilgan. Sotsiolog olimlardan G.Spenser G.Zimmel, J.Xomans, T.Parsons, M.Veber, E.Dyurkgeym, R.Merton, F.Tyonnis, N.Smelzer, P.Sorokin, O.Lyuislarning fundamental asarlarida kambag‘allik muammosining ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Zamonaviy g‘arb sotsiolog va iqtisodchilaridan A.Atkinson, P.Abrahamson, A.Sen, J.Skott, A.Turein, R.Natan, J.Uilson, J.Beyker, R.Huseyn, S.Alkire, J.Foster, M.Santos, K.Styuart, N.Robert, M.Xaq, M.Azim va boshqalar kambag‘allik muammosini aholini turmush darajasi va daromadlariga qarab emas, balki odamlarning o‘zlari munosib deb hisoblagan hayot kechirishlari uchun mavjud imkoniyatlar bo‘yicha baholashga harakat qilishgan. Ular o‘z ishlarida kambag‘allikning turli sabablari borligini ta‘kidlagan holda ko‘p o‘lchovli kambag‘allik nazariyasini ishlab chiqib, ommalashtirgan. Mustaqil davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan E.I.Valich, S.Bikova, L.Volchkova, L.Gordon, N.E.Tixanova, N.V.Kovaleva, S.S.Yaroshenko, N.M.Rimashevskaya va boshqalar kambag‘allikning tabiati, turlari, kelib chiqish sabablarini iqtisodiy, ijtimoiy hodisa sifatida nazariy jihatdan tahlil qilgan. T.Y.Bogomolov, A.Razumov M.A.Mojina, N.Bondarenko, L.N.Ovcharova va boshqalar ishlarida kambag‘allik o‘lchovlari va uning ko‘lami amaliy jihatdan o‘rganilgan.

³ Qarang: Bu va keyingi ko‘rsatilgan mualliflarning ishlari dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati”da ko‘rsatilgan.

Mamlakatimiz sotsiolog-olimlaridan A.A.Umarov, M.B.Bekmurodov, R.A.Ubaydullayeva, A.J.Xolbekov, Sh.M.Sodiqova, T.B.Matibayev, N.Aliqoriyev, F.Ya.Parmonov, M.X.G'aniyeva, O.Abduazimov, A.P.Seitov, B.A.Farfiyev, O.B.Ata-Mirzayev, N.M.Latipova, X.T.Xusanova, N.Sh.Kamalova, B.X.Tolibovlar iqtisodchi olimlaridan Q.Abduraxmonov, B.H.Umurzaqov, A.Vahobov, T.Ahmedov N.X.Raximova, Z.A.Musayeva va boshqalar ilmiy izlanishlarida aholini kam ta'minlangan, yordamga muxtoj qatlamlarini aniqlash, turmush darajasi va hayot sifatini baholash, ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, ijtimoiy ta'minot va inson kapitalini rivojlantirishning ahamiyati kabi masalalar atroflicha o'rganilgan. Shu paytgacha O'zbekistonda ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish omillari kompleks va tizimli tarzda, ijtimoiy muammo, maxsus tadqiqot ob'ekti sifatida chuqur tahlil qilinmagan.

Mamlakatimizda o'tkazilgan tadqiqotlar kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy usullarini tahlil qilish, ilmiy asoslangan yechimlar ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan. Biroq, kambag'allikning ijtimoiy omillari to'liq va chuqur tahlil qilinmaganligi bu sohada yechimni talab qiluvchi muammolar borligini ko'rsatadi. Mavjud bo'shliqlar tadqiqotchi tomonidan ushbu mavzuni ilmiy tahlil qilish va ularning yechimini topish uchun asosiy tadqiqot ob'yekti sifatida tanlashga turtki bo'ldi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekistonda ehtiyojmand aholining kambag'allikka tushib qolishiga sabab bo'luvchi omillarni tizimli tadqiq etish orqali ularni mazkur holatdan chiqarish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kambag'allik fenomeniga ta'rif berish hamda uning turli sotsiomadaniy va stratifikatsion muhitdagi o'rnini tadqiq etish;

kambag'allikka sabab bo'luvchi ijtimoiy omillarni tizimli tahlil qilish;

kambag'allikning kelib chiqish sabablari, omillari va uni baholash mezonlarini tahlil qilish;

aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston sharoitida qo'llash imkoniyatlarini tavsiflash;

ehtiyojmand qatlamlarni kambag'allikdan xalos etishga yo'naltirilgan ijtimoiy himoya strategiyalarining asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash;

Inson kapitalining salohiyatini oshirish, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohasiga investitsiya kiritishni rag'batlantirish orqali aholining bandligini ta'minlashning kambag'allikni qasqartirishdagi o'rni va ahamiyatini ochib berish;

O'zbekistonda ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar taqdim etish.

Tadqiqot ob'yekti O'zbekistonda ehtiyojmand aholi qatlamlarini kambag'allikdan chiqarish holati hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarishning ijtimoiy omillari, ularning turlari va amalga oshirish imkoniyatlari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari: Tadqiqotda statistik tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, analiz va sintez, iqtisodiy-statistik tahlil, onlayn anketa so‘rovnoma kabi tadqiqot usullari qo‘llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

aholining ijtimoiy omillarini faollashtirish (faol shaxslar, tadbirkorlar, yoshlar yetakchilariga bog‘lash, reintegratsiyalash, institutlashtirish va inklyuziv jarayonga integratsiyalash) negizida kambag‘allikdan chiqarishning sotsiomadaniy va stratifikatsion muhitning o‘rni ochib berilgan;

ijtimoiy yordamni subsidiar tizimdan insonni maqsadli va manzilli rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy ko‘maklashishning vaucher (faqat zaruriy buyum va vositalarni sotib olish mumkin bo‘lgan) tizimini mahallalarda joriy etish samarasi sotsiologik asoslantirilgan;

xotin-qizlar va yoshlarni monomarkaz va kasb-hunar maktablarida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida mehnat bozori talabiga javob beradigan kasblarga o‘qitish turlarini ko‘paytirish, o‘quv dasturlarini zamon talablariga moslashtirish bo‘yicha ijtimoiy loyihalar asosida “o‘zini-o‘zi ish bilan ta‘minlash” orqali doimiy daromadga ega bo‘lish samarasi asoslantirilgan;

inson kapitali past, imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlari orasida kambag‘allik darajasining yuqori bo‘lishi nazariy va empirik asoslangan hamda bunday holat izolyatsiya, marginallashuv va ijtimoiy chetlanish kabi xavflarning shakllanishiga sabab bo‘lishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

olib borilgan tadqiqot asosida ehtiyojmand aholi toifalarini kambag‘allikdan qutulishiga xizmat qiluvchi ijtimoiy omillarning samaradorligi baholangan;

kambag‘allik muamosiga doir sotsiologik ilmiy maktablarining nazariy qarashlari ilmiy asoslangan;

rasmiy statistik ma‘lumotlar va tadqiqotlar asosida mamlakatdagi muxtoj aholining ijtimoiy tuzilmasining tahlili amalga oshirilgan;

O‘zbekistonda yordamga muhtoj aholini kambag‘allikdan chiqarish jarayoni ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlari tahlil etilgan va uning jamiyat rivojiga ta‘siri ochib berilgan;

yordamga muhtoj aholini kambag‘allikdan chiqarish, farovonligini oshirish va ularni iqtisodiy hamda ijtimoiy hayotga faol jalb qilish orqali barqaror rivojlanishni ta‘minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi: Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo‘llanilgan yondashuv va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar rasmiy manbalardan olingani, natijalar OAK ro‘yxatiga kiritilgan nufuzli xorijiy va respublika jurnallarida, mahalliy va xalqaro konferensiya materiallarida chop etilgan maqolalar, o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari, ekspert so‘rov va kuzatish natijalari bilan taqqoslash orqali yakuniy xulosaga erishilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi hamda vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ehtiyojmand aholini kambag‘allikdan chiqarishga qaratilgan davlat

dasturlarni ishlab chiqishda, yordamga muhtoj qatlamlarni ijtimoiy himoyalash tizimini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati olingan nazariy sotsiologik va statistik ma'lumotlardan keyingi tadqiqotlarda foydalanish, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida "Iqtisodiy sotsiologiya", "Ijtimoiy siyosat", "Ijtimoiy ta'minot", "Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi" kurslarining ma'ruza hamda seminar mashg'ulotlarida qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: O'zbekistonda ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish muammosini o'rganish asosida:

aholining ijtimoiy omillarini faollashtirish (faol shaxslar, tadbirkorlar, yoshlar yetakchilariga bog'lash, reintegratsiyalash, institutlashtirish va inklyuziv jarayonga integratsiyalash) negizida kambag'allikdan chiqarishning sotsiomadaniy va stratifikatsion muhitning o'rni ochib berilgan taklifi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirining Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi amaliyotida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-iyuldagi "Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son Farmonining 6-bandida belgilangan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 29 avgustdagi №01/00-03/26-8059-sonli, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 10-sentabrdagi 2-13-21-4710-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy muhtoj aholi qatlamlarini inklyuziv jarayonga integratsiyalash hamda insonlarni intellektual jihatdan takomillashtirishga ko'maklashib xududlarda kambag'allik darajasini qisqartirish imkonini berdi;

ijtimoiy yordamni subsidiar tizimdan insonni maqsadli va manzilli rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy ko'maklashishning vaucher (faqat zaruriy buyum va vositalarni sotib olish mumkin bo'lgan) tizimini mahallalarda joriy etish samarasi sotsiologik asoslantirilganiga doir xulosalar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi va barcha boshqarmalarida maqsadli va manzilli ijtimoiy ko'mak tizimini takomillashtirishda hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi amaliyotida "yaxshi", "o'rta" va "og'ir" toifalarini aniqlashda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 29 avgustdagi №01/00-03/26-8059-sonli, O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2024-yil 10-sentabrdagi 2-13-21-4710-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, insonlar o'z ustida ishlashi va mustaqil bo'lishini rag'batlantirib qaramlik, yolqovlik va boqimandalik kabi illatlarni kamaytirishga yordam berdi. Shuningdek, davlatning ijtimoiy yukini kamaytirib, ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi;

xotin-qizlar va yoshlarni monomarkaz va kasb-hunar maktablarida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida mehnat bozori talabiga javob beradigan kasblarga o'qitish turlarini ko'paytirish, o'quv dasturlarini zamon talablariga moslashtirish bo'yicha ijtimoiy loyihalar asosida "o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash"

orqali doimiy daromadga ega bo'lish samarasi asoslantirilganiga oid taklifdan "Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazi tomonidan 2023 yilda "Zamonaviy O'zbekistonda xotin-qizlarning roli to'g'risida fuqarolarning fikri" mavzusida o'tkazilgan sotsiologik so'rovda ilk bor tajriba tarzda foydalanildi ("Ijtimoiy fikr" Respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markazining 2024 yil 30 avgustdagi 01-16/206-son ma'lumotnomasi). Natijada, xotin-qizlarni talab yuqori bo'lgan kasblarga o'qitish yo'nalishlarini kengaytirish, ularning bandligini ta'minlash hamda kambag'allikdan chiqish vositalarini sotsiologik baholash orqali ushbu tizimni yanada takomillashtirish imkonini berdi;

inson kapitali past, imkoniyatlari cheklangan aholi qatlamlari orasida kambag'allik darajasining yuqori bo'lishi nazariy va empirik asoslangan hamda bunday holat izolyatsiya, marginallashuv va ijtimoiy chetlanish kabi xavflarning shakllanishiga sabab bo'lishi dalillangan taklifi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2023-yil 22 sentabrdagi 170-sonli buyrug'i asosida markaziy apparati hamda xududiy boshqarmalar amaliyotida foydalanishga qabul qilindi (O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 29 avgustdagi №01/00-03/26-8059-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini rag'batlantirish ham inson kapitalining salohiyatini oshirish orqali izolyatsiya, marginallashuv va ijtimoiy chetlanish kabi xavflarning shakllanishini oldini olishga ko'maklashib va kambag'allikni bartaraf etishda sezilarli amaliy mexanizmga aylandi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning ilmiy natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferentsiyalarda taqdim etilgan.

Tadqiqot natijalarini nashr etish. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 6 ta ilmiy maqola (2 tasi esa xorijiy jurnallarda) 6 ta ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plamida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob (9 ta paragraf), xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 128 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, ob'yekti, predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiqotning ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishonchligi, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, ishning nashr etilishi, tadqiqotning tuzilmasi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Kambag'allik muammosini tadqiq etishning nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda kambag'allik tushunchasining mazmun-mohiyati va nazariy asoslari, kambag'allikning kelib chiqish sabablari, shart-sharoitlari va uning ijtimoiy xavfi, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati hamda kambag'allik mezonlari tahlil qilingan. Manbalar va ilmiy-tadqiqot materiallarini ko'rib chiqish hamda tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda "kambag'allik", "qashshoqlik", "tengsizlik", "kam ta'minlangan" kabi

tushunchalarga ko‘plab ta’riflar berilgan. Bu ta’riflar bir-biriga zid emas, balki bir-birini to‘ldiradi.

Sotsiologiya ensiklopedik lug‘atida “Kambag‘allik – zarur ne‘matlarning narxini o‘zlari to‘lay olmaydigan shaxs yoki guruh iqtisodiy ahvolidning o‘ziga xos xususiyati. Kambag‘allik nisbiy bo‘lib, u umumiy standartga, ma’lum bir jamiyatdagi turmush darajasiga, taqsimotiga, boylikka, maqom tizimiga va ijtimoiy kutish tizimiga bog‘liq”⁴ deb ta’rif berilgan. BMT ta’rifiga ko‘ra, “kambag‘allik – bu tanlov va imkoniyatlarga ega bo‘lmaslik, jamiyatda samarali ishtirok etish uchun asosiy imkoniyatlarning yetishmasligini anglatadi. Kambag‘allik – bu hayot uchun zarur bo‘lgan oziq-ovqat, toza ichimlik suvi, boshpana va kiyim-kechak, sog‘liqni saqlash, ta’lim va hatto transportdan foydalanish imkoniyati bilan ta’minlash uchun resurslarning yetishmasligidir”⁵. Jahon banki tomonidan berilgan ta’rifga ko‘ra, “kambag‘allik – odamlarning yashash uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlarni qondirolmaslik holatidir”⁶.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev kambag‘allik muammosini “... insonning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlariga ega bo‘lmasligi, jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun to‘siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oilani boqishi va kiyintirishi, ta’lim olishi yoki kasalxonada davolanishi, biror sohada faoliyat yuritishi yoki daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta’minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo‘ladi”⁷ – deb ta’riflaydilar.



1-rasm. Kambag‘allikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladigan asosiy omillar.

Dissertantning fikricha, kambag‘allik fenomeni murakkab, keng qamrovli bo‘lib, inson va ijtimoiy xulq-atvorning juda ko‘p o‘lchovlarini qamrab oladi.

⁴ Социологический энциклопедический словарь. На русском, английском, немецком, французском и чешском языках. Редактор-координатор – РАН Г.В.Осипов – Москва: Издательская группа ИНФРА. М – НОРМА, 1998. – С. 28.

⁵ United Nations (1995), The Copenhagen Declaration and Programme of Action, World Summit for Social Development. 6-12 March 1995, New York, United Nations. Available at <http://www.un.org/esa/socdev/wssd/text-version/> (Accessed 17 January 2017)

⁶ World Bank (1996) Poverty Assessments: A Progress Review, Washington DC: World Bank.

⁷ Qarang: Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021. – Б.436.

Odamlarga tegishli deyarli har qanday nazariyani kambag'allik tushunchasining bir qismi sifatida qarashimiz mumkin. Kambag'allikning kelib chiqishi iqtisodiy va noiqtisodiy omillar, bandlik, daromad darajasi, oilaning katta-kichikligi, ta'lim hamda salomatlik holati bilan bog'liq.

Kambag'allikning sabablari hudud, mintaqa va mamlakatlar bilan solishtirganda global darajada farq qilishi mumkin. Biroq, bu sabablar orasida umumiylik mavjud. Bu sabablarni tushunishda iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy, geografik, ekologik omillar hisobga olinishi kerak. "Kambag'allik kelib chiqish sabablari haqidagi keng tarqalgan nazariyalarda individualistik va strukturaviy qarashlar ustunlik qiladi"⁸.

Hozirda dunyo mamlakatlarida kambag'allikni daromad va iste'molga asoslangan me'yorlar bilan birgalikda ko'p o'lchovli indeksdan foydalanish zarurligi keng e'tirof etilmoqda. Dunyo amaliyotida kambag'allikni baholashda asosan uchta o'lchovdan, ya'ni mutlaq, nisbiy va sub'yektiv kambag'allik konsepsiyasidan keng foydalaniladi.

Mutlaq kambag'allik insonning asosiy ehtiyojlaridan, jumladan, oziq-ovqat, toza ichimlik suvi, sanitariya inshootlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joyga bo'lgan ehtiyoji qondirilmaligi bilan tavsiflanadi. Mutlaq o'lchovning namunasi BMT va Jahon Bankining "kuniga 1,9 dollar xalqaro kambag'allik (xarid qobiliyati pariteti PPP) chegarasidir. 2015-yil oktabr oyida Jahon banki Xalqaro kambag'allik chegarasining kunlik sarfini 2011 yilda belgilangan 1,9 AQSH dollari o'zgarishsiz qoldirdi"⁹. "2017 yilgi xarid qobiliyati paritetlari (PPP) bo'yicha jahon narxlarining yangi hisob-kitoblari qabul qilindi va bu miqdor 2,15 AQSH dollariga oshdi"¹⁰. Ammo Jahon banki tomonidan aksariyat hollarda xamon kunlik sarf-xarajat chegarasi sifatida 1,9 AQSH dollari miqdori qo'llanilmoqda.

Demak, mutlaq kambag'allik o'lchovlari daromadni oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshpana kabi asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan miqdor bilan nisbiy kambag'allik insonning yashash darajasining minimal darajasiga, xuddi shu vaqt va makondagi boshqa odamlarning turmush darajasi bilan solishtirish orqali, sub'yektiv kambag'allik esa maqbul turmush darajasi uchun zarur bo'lgan resurslarni yetarliligi bilan o'lchanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "**Kambag'allikni bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari**" deb nomlanadi. Unda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi, O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlari, aholining bandligini ta'minlash va inson kapitalini rivojlantirishning kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati tahlil qilingan. Professor M.Bekmurodov ta'kidlaganidek, "Inson kapitali – bu muayyan odamdagi bilim, tajriba, ko'nikma va qobiliyatlarning iqtisodiy samaradorligidir. Inson kapitalidan to'g'ri foydalanish faqat bir tomonlama, ya'ni shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish zarurati kun tartibiga qo'yila boshlandi"¹¹. Demak, inson kapitalini

⁸ Niemelä, M. (2008). Perceptions of the Causes of Poverty in Finland. Acta Sociologica, 51(1), 23–40.

⁹ Qarang: "World Bank". The World Bank. Retrieved 17 June 2019.

¹⁰ Qarang: World Bank Group, 2018. Poverty and shared prosperity 2022 piecing together poverty puzzle. Washington DC: World Bank Group.

¹¹ Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б. 52-53.

shakllantirish nafaqat bilim, malaka to‘plashni, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham taqozo etadi.

Jahon bankining 2020 yilda e‘lon qilingan inson kapitali indeksi bo‘yicha hisobotida birinchi marta O‘zbekiston ma‘lumotlari keltirilgan. Unda mamlakatimizdagi inson kapitali indeksi 62 foiz bilan baholangan. Bu Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan past, lekin daromadi past bo‘lgan mamlakatlarning o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori.

Hozirgi vaqtda minimal iste‘mol xarajatlari orqali kambag‘allikni o‘lchash yetarli emasligi, o‘lchovlarda ta‘lim va sog‘liqni saqlash parametrlarini hisobga olish kerakligi keng e‘tirof etilmoqda. Ta‘lim va sog‘liqni saqlash kabi inson kapitalini to‘plashga qaratilgan omillar, daromadlar tengsizligini yo‘qotish orqali iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash hamda kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi.

1-Jadval.

Jahon bankining “inson kapitali indeksi” bo‘yicha O‘zbekiston ko‘rsatkichlari (2020)


Mamlakat nomi	5 yoshgacha omon qolish ehtimoli	Kutilayotgan maktab yillari	Voyaga yetganlarning omon qolish darajasi	Inson kapitali indeksi 2020 (pastki chegara)	Inson kapitali indeksi 2020	Inson kapitali indeksi 2020 (yuqori chegara)
O‘zbekiston	0,98	12,0	0,87	0,60	0,62	0,64

Ma‘lumki, dunyo davlatlarida kambag‘allikni qisqartirishga qaratilgan salmoqli tajriba to‘plangan. Kambag‘allikni qisqartirishda Osiyo mamlakatlari qishloq xo‘jaligi, hunarmadchilik va kasanachilikni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratgan bo‘lsa, rivojlangan g‘arb mamlakatlari esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholini moddiy hamda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘lidan borgan. Shu ma‘noda, jahon mamlakatlarining kambag‘allikka qarshi kurashishning eng yaxshi tajribalarini o‘rganish va mahalliy sharoitlarga moslashtirish muammoni bartaraf etishga samarali yordam beradi. Ayni paytda, Xitoy va Hindiston kabi davlatlarning qashshoqlikka qarshi kurashdagi muvaffaqiyatli tajribasi butun dunyo uchun ilhom manbai bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan, “Xitoy 40 yil ichida 800 milliondan ortiq insonni qashshoqlikdan chiqargan, bu esa dunyodagi umumiy qashshoqlikning 70 foizgacha qisqarishiga hissa qo‘shgan”¹². Bunda infratuzilmani yaxshilash, ijtimoiy dasturlarni rivojlantirish, ta‘lim va sog‘liqni saqlash sohasini qo‘llab-quvvatlash kabi omillar hal qiluvchi rol o‘ynagan.

Tadqiqotda kambag‘allikni qisqartirishda ijtimoiy himoya tizimi muhim ahamiyat kasb etishi ta‘kidlangan. Har qanday jamiyatda, iqtisodiy va siyosiy tuzilishidan yoki rivojlanish darajasidan qat‘i nazar, turli sabablarga ko‘ra tirikchilik uchun zaruriy resurslardan mahrum bo‘lgan ehtiyojmand insonlar mavjud bo‘lib kelgan va mavjud bo‘lib qolaveradi.

¹² World Bank and Development Research Center of the State Council, the People’s Republic of China. Four decades of poverty reduction in China: Drivers, insights for the world, and the way ahead. – 2022.

Ijtimoiy himoya tizimini amalga oshirishda etiborga molik, muhim jihatlaridan biri, yordamlarni haqiqiy egalariга yetib borishini ta'minlash, odamlarda boqimandalikni keltirib chiqarishga sharoit yaratib bermaslikdir. Sotsiologiya fanlari doktori professor A.Umarov ta'kidlaganidek, "o'z hayoti mazmunini boyitishga intilmagan insonning yashashi maqsadsizlikka olib keladi"¹³. Sotsiologiya fanlari doktori (DSc) X.Xusanovning fikricha, "Kambag'allikning sub'yektiv omillari boqimandalikni shakllantiruvchi ijtimoiy ozuqa vazifasini o'taydi"¹⁴. Demak, boqimandalik kayfiyati mehnatga qodir va jismonan sog'lom insonlarda ishlash istagini pasayishi, o'z hayotini o'zgaralar yordami hisobiga qurishga intilishning ustunligi, moddiy yordamga haddan tashqari umid bog'lash, maqsadsizlik kabi holatlarni keltirib chiqaradi. Bunday munosabat nafaqat shaxs va uning oilasi turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki kambag'allikning ortishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Biroq, doimiy daromad manbaiga ega bo'lmagan ehtiyojmand aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va ularga moddiy yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratish, ularni kambag'allikdan chiqarishda muhim o'rin tutadi.



2-rasm. Ijtimoiy himoya tizimining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati¹⁵

Dissertatsiya tadqiqoti davomida o'tkazilgan so'rovnomada ijtimoiy nafaqa va yordam pullarining berilishi kambag'allar uchun qanchalik ahamiyatli ekanligini so'ralganda respondentlarning to'rt dan uch qismi (71,3%) nafaqa va yordam pullari kambag'al odamlar uchun zarur ekanligini, bu yordamlar ularning ehtiyojlarini qondirishga yordam berishini ta'kidlagan. 12,8%i nafaqa va yordamlar kambag'allarga qo'shimcha daromad olish imkonini beradi, 9,1%i nochor aholini

¹³ Umarov A.A. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotni ta'minlash va komil inson shaxsini shakllantirishda muhojirlarning roli. Soq.f.dokt.diss. – Toshkent: Toshkent davlat madaniyat instituti, 2005. – B. 32


¹⁴ Xusanova X. T. Ўзбекистонда aholini ijtimoiy himoyalashning konseptual asoslari va innovatsion tendentsiyalari. Soq.f.d (DSc) diss. – Toshkent: ЎзМУ, 2023. – B. 125.

¹⁵ Izoh: Ma'lumotlar dissertatsiya muallifi tomonidan 2023-yilda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan.

kambag'allikdan chiqishga yordam beradi, qolgan 6,7%i aniq javob berishi qiyinligini bildirgan. (2-rasm) Shuningdek, "nogironlar va kasalmandlardan tashqari hech kimga yordam pullari bermaslik lozim, shu pullar evaziga ko'pchilik boqimanda bo'lib bormoqda", "ijtimoiy yordamlar nochor va kambag'al odamlarning zaruriy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi", "men uchun moddiy yordam juda zarur, chunki mening maoshim oziq-ovqat sotib olishga va barcha xarajatlarimni qoplashga yetmaydi" degan fikrlar ham bildirilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi "**O'zbekistonda iqtisodiy nochor aholini kambag'allikdan chiqarish jarayonlarining sotsiologik tahlili**" deb nomlanib, ushbu bobda O'zbekistonda ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarishning asosiy yo'nalishlari, kambag'allik hodisasini sotsiologik tadqiq etish usullarini takomillashtirish, ehtiyojmand aholini kambag'allikdan chiqarish bo'yicha chora-tadbirlarning sotsiologik tahlili amalga oshirilgan.

Dissertantning fikricha, jahon tajribasida kambag'allik darajasini aniqlashning eng ko'p qo'llaniladigan usuli kunlik zarur bo'lgan minimal oziq-ovqat mahsulotlari kaloriyasi qiymati asosida minimal iste'mol xarajatlarini hisoblash orqali kambag'allikning monetar chegarasini belgilashdir. Biroq, bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar va amaliyotchilar kambag'allikni faqatgina monetar ko'rsatkichlar orqali aniqlash yetarli emasligini qayd etmoqdalar. Ularning fikriga ko'ra, kambag'allik inson hayotining sifatini belgilovchi turli omillar yig'indisi tarzida qaralishi, ya'ni ko'p o'lchovli yondashuv asosida baholanishi lozim.



3-rasm. O'zbekistonda kam ta'minlangan aholi ulushi va kambag'allik darajasi.

Mamlakatimizda minimal iste'mol xarajatlari (MIX) Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 27 avgustda qabul qilingan Nizomiga asosan amalga oshiriladi¹⁶. Ushbu Nizomda aholining real iste'mol xarajatlari, xususiyatlari va tarkibidan kelib chiqib, aholining minimal iste'mol xarajatlari qiymati va kambag'allik chegarasini hisoblash tartibini belgilab berilgan. 2021 yildan boshlab respublikada

¹⁶ Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 27 августдаги "Аҳолининг минимал истеъмол харажатлари қиймати ва камбағаллик чегарасини ҳисоблаш тартиби тўғрисида"ги Низом. <https://lex.uz/docs/5606697>

kambag'allikning milliy darajasi Statistika agentligi tomonidan o'tkazilgan uy xo'jaliklari kuzatuvlari natijalarida o'rnatilgan minimal iste'mol xarajatlari asosida hisoblanib kelmoqda. Ushbu mezonga ko'ra, "2021 yilda kambag'allik 17 foizni, 2022 yilda esa 14,1 foizni tashkil qildi. 2023 yilda kambag'al oilalar soni 1307,8 mingni tashkil qilgan bo'lsa, yil yakunida kambag'allik darajasi 3,1 foizga qisqarib kambag'allik darajasi 11,0 foizni tashkil qildi"¹⁷. (3-rasmga qarang)

2021 yil uchun hisoblangan kishi boshiga bir oylik minimal iste'mol xarajatlarning miqdori 440 ming so'm, 2022 yildagi 498 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda bu miqdor 13,2 foizga oshib, 568 ming so'mni tashkil etdi.¹⁸ 2024 yilning yanvarida esa 568 ming so'mdan 621 ming so'mga oshirildi. "2024 yilning 1 mayidan boshlab minimal iste'mol xarajatlari 648 ming so'm miqdorida belgilandi"¹⁹.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, mamlatimizda kambag'allikning paydo bo'lish sabab va omillari turlicha ekanligi uni qisqartirishni yagona dastur orqari amalga oshirish imkoniyatini cheklaydi. Shu tufayli kambag'allikni qisqartirishda uning kelib chiqish sabablari va xususiyatlari inobatga olinib, turlicha dasturlarni amalga oshirish samarali natija beradi.

Dissertatsiya muallifi ishning empirik asosi sifatida 18 va undan katta yoshdagi aholining turli toifalari o'rtasida sotsiologik tadqiqot o'tkazgan. Tadqiqot davomida kambag'allikning paydo bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar, oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati bilan bog'liq masalalar o'rganildi.



4-rasm. Kambag'allikka sabab bo'ladigan asosiy omillar

Sotsiologik so'rovda 492 nafar respondent qatnashdi, jumladan, 168 nafar erkaklar (34,1%) va 324 nafar ayollar (65,9%). So'rov o'tkazilgan respondentlarning yosh tuzilmasi quyidagicha: 18-25 yoshdagilar 174 nafar (35,4%), 25-30 yoshdagilar 51 nafar (10,4%), 31-40 yoshdagilar 123 nafar (25,0%), 41-50 yoshdagilar 72 nafar (14,6%), 50 yoshdan yuqori 72 nafar (14,6%)ni tashkil etgan. So'rov o'tkazilgan respondentlarning oilaviy ahvoli: oilali 348 nafar (70,7%),

¹⁷ Ўзбекистонда камбағаллик даражаси 11 фоизга қискарди // <https://gov.uz/uz/bv/news/view/5337/>

¹⁸ Qarang: gazeta.uz сайти. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/07/18/min-cost/>

¹⁹ Qarang: <https://gov.uz/uz/pj/news/view/10818>

oil qurmagan 144 nafar (29,3%). Respondentlarning yashash manzillari: shaharda yashovchilar 276 nafar (56,1%), tuman markazlarida yashovchilar 54 nafar (11,0%), qishloqda yashovchilar 162 nafar (32,9%).

O'tkazilgan so'rovnoma odamlarning kambag'allikka tushib qolishiga sabablari sifatida respondentlarning uchdan bir qismi 34,8%i ishsizlik va ishlash uchun yetarli imkoniyat yo'qligini, (33,5%i) odamlarni kambag'allik hayotiga rozi bo'lishi, 11,0%i giyohvand moddalar iste'moli va ichkilikbozlik kabi salbiy illatlarni, 12,2%i dankasalik va loqaydlik, 3,7%i tengsizlik va adolasizlik, 3,0%i nogironlik yoki kasallik, qolgan 1,9%i yetarli bilim va malakaga ega bo'lmaslik, ta'lim olish imkoniyatlarining yo'qligi sababli kambag'allikka tushib qoladi degan javoblarni berishgan. Respondentlar tomonidan berilgan javoblarda kambag'allik sabablarida individualistik (kambag'allik uchun javobgarlikni kambag'allarning o'ziga yuklanadigan) va stukturaviy (tashqi ijtimoiy va iqtisodiy omillar) omillar yetakchilik qiladi. (4-rasmga qarang)

Respondentlarga daromadlari farzandlarini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash va ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi uchun sharoit yaratib berishga yetarilishini aniqlash maqsadida bir qancha savollar berildi. Ushbu savollarning tahliliga ko'ra, so'ralganlarning 63,4 foizi farzandlarini o'zi xohlagan darajada sifatli oziqlantirish imkoniga ega, 36,6 foizida bunday imkoniyat yo'q. Qatnashganlarning 78,0 foizi farzandlarini bog'chaga berish imkoniga ega, 22,0 foizida bunga imkoniyat yo'q. Farzandlarini maktabdan keyin sport bilan shug'ullanishi uchun to'lov qilishga 64,6 foiz ota-onaning imkoniyati bor, 35,4 foizida esa bunga ortiqcha mablag'lari yo'qligini bildirishgan. Shuningdek, 61,6 foizi ishtiroqchilar farzandingizni qo'shimcha darslar uchun repetitor yollashga imkoniyat borligini, 38,4 foizini bunga ortiqcha mablag'i yo'qligini bildirishgan. Bolalarga ta'lim olishi va sport bilan shug'ullanishiga sharoit yaratib berish ularni bilimli, jismonan sog'lom bo'lib kamol topishini ta'minlaydi. Odamlarning bilimli, jimonan sog'lom bo'lishi kelajakda yaxshi ish topishi va kambag'allikka tushib qolish xafini kamaytiradi.

2-jadval.

Tovar hamda xizmatlarga to'lov qilish qobiliyati darajasi²⁰


	Ta'lim xarajatlari	Oziq-ovqat maxsulotlarini sotib olish	Oylik kommunal to'lovlar	Ijara yoki ipoteka kreditlari to'lovi	Transport xarajatlari (Gaz/benzin)	Bolalarni parvarish qilish
Darajalar						
Osonlashdi	36,0	17,1	19,5	27,4	12,8	29,3
Qiyinlashdi	45,7	68,3	64,6	58,5	75,6	51,2
